

## **“O`zagrosug`urta” AJ Kuzatuv kengashi yig`ilishining**

### **3 - sonli bayonnomasi**

**(KO`CHIRMA)**

2022 yil 30 aprel

Toshkent sh.

**Yig`ilish o`tkazilgan vaqt va joyi:** Toshkent shahri, Chilonzor tumani, 19-mavze, 61/2, “O`zagrosug`urta” aksiyadorlik jamiyati Boshqaruvi majlislar zali, soat 11:00. Yig`ilish videokonferens aloqa orqali o`tkazildi.

#### **Qatnashdilar:**

- |                           |  |
|---------------------------|--|
| <b>Kengash raisi</b>      | – M. Mirzaev – O`zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo`mitasi raisining birinchi o`rinbosari, Kuzatuv kengashi raisi    |
| <b>Kengash a`zolari</b>   | – E. Rustamov, F. Karabaev, X. Mustafaev, A. Miraliev, A. Mo`minov, A. Niyazov   |
| <b>Boshqaruv a`zolari</b> | – M. Mirabzalov, A. Yusupov, B. Axadov, B. Sodiqov, M. Nosirov, A. Jumaev  |
| <b>Taklif etilgan</b>     | – K. Talipov – O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug`urta bozorini rivojlantirish agentligi direktori |
|                           | Sh. Rasulov – ATB “Agrobank” Boshqaruvi raisining birinchi o`rinbosari   |

#### **KUN TARTIBI**

#### **“O`zagrosug`urta” aksiyadorlik jamiyati Boshqaruvi raisini tayinlash to`g`risida.**

**Kun tartibidagi masala yuzasidan** Jamiyat Kuzatuv kengashi raisi M. Mirzaev so`zga chiqdi.

M. Mirzaev Jamiyat Boshqaruvi raisi vazifasini bajaruvchi lavozimiga Sh. Rasulovni tayinlashni, Boshqaruv raisini saylash (tayinlash) bo`yicha umumiy yig`ilish qarori chiqqunga qadar u bilan Boshqaruv raisi vazifasini bajarish to`g`risidagi shartnoma tuzishni taklif qildi.

Kun tartibidagi masala Jamiyat Kuzatuv kengashi a`zolari tomonidan muhokama qilinib, kengash raisi masalani ovozga qo`ydi.

**Ovoz berish natijalari:** «tarafdor» 7, «qarshi» 2, «betaraf» 2

#### **Qaror qilindi:**

1. “O`zagrosug`urta” AJ Boshqaruvi raisi Otamuratov Sarvar Sadullaevich Jamiyat Boshqaruv raisi lavozimidan ozod etilsin.

**2.** Jamiyat Boshqaruvi (M. Mirabzalov) S. Otamuratovni Jamiyat Boshqaruvi raisi lavozimidan ozod etish bilan bog`liq hujjatlarni mehnat qonunchiligiga muvofiq rasmiylashtirsin.

**3.** Rasulov Shuxrat Gayratovich “O`zagrosug`urta” AJ Boshqaruvi raisi vazifasini bajaruvchi etib tayinlansin.

**4.** Jamiyat Boshqaruvi (M. Mirabzalov) Sh. Rasulov bilan Jamiyat aksiyadorlarining navbatdagi umumiy yig`ilishigacha bo`lgan muddatga “O`zagrosug`urta” AJ Boshqaruvi raisi vazifasini bajarish to`g`risidagi shartnoma loyihasini imzolash uchun Kuzatuv kengashi raisi M. Mirzaevga kiritsin.

**5.** “O`zagrosug`urta” AJ Boshqaruvi raisini tayinlash masalasini ko`rib chiqish uchun Jamiyat aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig`ilishini chaqirish masalasi Kuzatuv kengashi muhokamasiga kiritilsin.